

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Yashil ta’mir – Ipoteka krediti
Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 21 yoshga to'lgan 60 yoshdan oshmagan, shuningdek ish haqi ko'rinishidagi oylik rasmiy yoki boshqa tasdiqlangan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm
Kredit miqdori	300 million so'mgacha.
Kredit maqsadi	Yakka tartibdagi uy-joy yoki ko'p kvartirali uy-joydagi xonadonni ta'mirlash uchun. Bunda, kredit mablag'i turar joy binolarining energiya xarajatlarini kamaytirish maqsadida, shu jumladan, quyosh panellari, geliokollektorlar va issiqlik nasoslari (havo, suv va geotermal) o'rnatish, devor va tomni izolyatsiya qilish, deraza va eshiklarning issiqlik yo'qotishlari va o'tkazuvchanligini kamaytiruvchi turlarini o'rnatish hamda qozon va havo sovitish-isitish (konditsioner) tizimlarini energiya tejamkor turlariga almashtirish yoki yangidan o'rnatish uchun ajratiladi.
Kredit muddati	60 oy muddatgacha
Foiz stavkasi	Yillik 24%
	Kredit foizlariga boshqaruv qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.
Taqdim etish shakli	Ta'minotchining bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li orqali ajratiladi.
Kredit kimlarga ajratiladi	Kredit hisobiga ta'mirlanayotgan uy-joyda doimiy ro'yxatda turadigan va ushbu uyning egasi bo'lgan jismoniy shaxslarga yoki uy egasining yaqin qarindoshi (ota-ona, aka-uka, opa-singil, turmush o'rtog'i, farzandlari, kelini, kuyovi) bo'lgan va ushbu uy-joyda doimiy ro'yxatda turadigan boshqa jismoniy shaxslarga ajratiladi.
Boshlang'ich to'lov	Boshlang'ich to'lov talab etilmaydi.
Talab etiladigan xujjatlar	• Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining pasporti yoki ID-kartasi;

	• oxirgi 12 oydagi daromadlari va mehnat faoliyatini tasdiqlovchi hujjatlar (Zarur hollarda); • ta'mirlanayotgan uy-joyning kadastr va egalik (mulk) huquqini tasdiqlovchi hujjatlar; • ta'mirlash ishlari rejasi va tasdiqlangan smetasi (tegishli ruxsat beruvchi organ tomonidan taqdim etilgan litsenziyaga ega bo'lgan smeta tuzuvchi tashkilot smetasi); • pudrat tashkiloti bilan ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha qurilish materiallari va/yoki green.uzmrc.uz veb-saytida ko'rsatilgan tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yoki savdo do'koni bilan tuzilgan shartnomalar (zarur hollarda) • ko'chmas mulkning bozor qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot.
Kredit ta'minoti	Ta'mirlanayotgan uy-joy kredit ta'minoti sifatida qabul qilinadi yoki bank talablariga mos keluvchi likvidli mol mulk garovi ham kredit ta'minoti sifatida taqdim etilishi mumkin. Kredit ta'minotiga olingan turar-joy (mol-mulk) ta'minot sifatida kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan qiymatda qabul qilinadi; * Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.
Kredit qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet to'lov usulida amalga oshiriladi.
Qo'shimcha shartlar	* Kredit olishni istagan qarz oluvchi rasmiy daromadga ega bo'lsa, kreditni olish uchun ariza berganida, oxirgi ish joyida kamida 6 (olti) oy davomida uzluksiz ishlagan bo'lishi; * Qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 50%i kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun etarli bo'lishi; * Qarz oluvchining joriy kredit tarixiga ega bo'lishi;